



MUZEY PEDAGOGIKASI VOSITASIDA TALABALARINI TURIZM FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

ORCID ID: 0009-0005-4516-9920

saydaliyevichsaidakbar2004@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada muzey pedagogikasining imkoniyatlari orqali talabalarda turizmga oid kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Muzeylar o'quv-tarbiya jarayonining boy resursi sifatida qaralib, talabalarda tarixiy-madaniy merosga nisbatan hurmat, milliy o'zlikni anglash, estetik dunyoqarash va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotda muzey muhitidan foydalanish metodlari, interaktiv ta'lif texnologiyalari, ko'rgazmalar asosida integratsiyalashgan darslarni tashkil etish va sayohat-ma'rifiy loyihalarni amalgaloshish orqali talabalarni turizm faoliyatiga samarali tayyorlash yo'llari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, pedagogik shart-sharoitlar sifatida muzeylar bilan hamkorlik, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish, talabalarning amaliyotga yo'naltirilgan ta'lif olishini ta'minlash kabi omillar aniqlangan.

Kalit so'zlar: *Muzey pedagogikasi, turizm faoliyati, talabalar, pedagogik shart-sharoitlar, interaktiv ta'lif, madaniy meros, kasbiy tayyorgarlik, amaliy ta'lif, innovatsion yondashuv.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR PREPARING STUDENTS FOR TOURISM ACTIVITIES THROUGH MUSEUM PEDAGOGY

Abstract.

This article analyzes the pedagogical conditions for forming professional skills related to tourism in students and preparing them for tourism activities through the opportunities provided by museum pedagogy. Museums are regarded as a rich resource in the educational process, serving as a means to develop students' respect for historical and cultural heritage, national identity awareness, aesthetic worldview, and communicative skills. The study demonstrates effective ways to prepare students for

Muzey pedagogikasi vositasida talabalarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari

tourism activities by utilizing museum environment methods, interactive teaching technologies, organizing integrated lessons based on exhibitions, and implementing travel-educational projects. Furthermore, pedagogical conditions such as collaboration with museums, use of modern pedagogical approaches, and ensuring practice-oriented education for students have been identified.

Keywords: *Museum pedagogy, tourism activities, students, pedagogical conditions, interactive education, cultural heritage, professional training, practical education, innovative approaches.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ТУРИСТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕРЕЗ МУЗЕЙНУЮ ПЕДАГОГИКУ

Аннотация.

В данной статье анализируются педагогические условия формирования у студентов профессиональных навыков, связанных с туризмом, и их подготовки к туристской деятельности посредством возможностей музейной педагогики. Музеи рассматриваются как богатый ресурс учебно-воспитательного процесса, служащий средством развития уважения студентов к историко-культурному наследию, осознания национальной идентичности, эстетического мировоззрения и коммуникативных навыков. В исследовании представлены способы эффективной подготовки студентов к туристской деятельности с использованием методов работы в музейной среде, интерактивных образовательных технологий, организации интегрированных уроков на основе выставок и реализации познавательно-туристических проектов. Кроме того, выявлены такие педагогические условия, как сотрудничество с музеями, использование современных педагогических подходов и обеспечение практико-ориентированного обучения студентов.

Ключевые слова: *Музейная педагогика, туристская деятельность, студенты, педагогические условия, интерактивное обучение, культурное наследие, профессиональная подготовка, практическое обучение, инновационные подходы.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — talabalarда amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni mehnat bozorining real talablariga tayyorlashdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, turizm sohasi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta’lim metodlarini joriy etish

dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, muzey pedagogikasi ushbu jarayonda o‘ziga xos metodik vosita sifatida katta imkoniyatlarga ega. Muzeylar nafaqat madaniy-ma’rifiy maskan, balki talabalarning kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi, ularni milliy va jahon madaniyatiga yaqinlashtiruvchi, ijodiy tafakkurini, estetik didini shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy muhitdir.

Muzey pedagogikasi talabalarning tarixiy-madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, ularni amaliy faoliyatga yo‘naltirish va turizm sohasiga tayyorlashda ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada aynan muzey muhitidan ta’lim-tarbiyada foydalanishning samarali shakllari, uslublari va pedagogik shart-sharoitlari o‘rganiladi. Ta’lim jarayonini muzey faoliyati bilan integratsiyalash orqali talabalarda kommunikativ, kasbiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, talabalarni turizm faoliyatiga tayyorlashda muzeylar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, interaktiv, amaliy va loyiha asosidagi ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish muhim omillar sifatida tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Muzey pedagogikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, asosan, muzeylarning ta’limiy va tarbiyaviy funksiyalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. A. A. Verbitskiy, V. G. Ivanov, L. S. Vygotskiy kabi rus olimlari muzey muhitining o‘quvchilar va talabalar shaxsini shakllantirishdagi o‘rnini chuqur tahlil qilganlar. O‘zbek tadqiqotchilaridan N. Jo‘raev, M. Jo‘rayev, G. Kadirova va D. Kadirova o‘z ishlarida muzeylar vositasida madaniy merosni o‘rganish, estetik tarbiya va vatanparvarlik ruhini shakllantirish masalalariga e’tibor qaratganlar.

Xalqaro miqyosda esa muzey ta’limi “museum-based learning” tamoyiliga asoslanib, ko‘proq interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb etishni nazarda tutadi (Hein, 1998; Hooper-Greenhill, 2007). Bunday yondashuvlar muzeylarning nafaqat tarixiy obyektlar ko‘rgazmasi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrashi, tahliliy yondashuvi va kasbiy qiziqishlarini shakllantirishdagi o‘rnini ko‘rsatib beradi.

Shu bilan birga, turizm ta’limida amaliyotga asoslangan yondashuvlar, tajriba asosidagi o‘rganish (experiential learning) ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu muzey muhitida samarali joriy etilishi mumkin.

Tarixiy-taqqoslov yondashuv – muzey pedagogikasining rivojlanish bosqichlari va zamonaviy turizm ta’limiga integratsiyalanish jarayonini o‘rganish uchun.

Tizimli yondashuv – muzey pedagogikasining turizmga oid kasbiy tayyorgarlikdagi o‘rnini pedagogik tizim doirasida aniqlash uchun.

Empirik tadqiqot metodlari – anketalar, suhbatlar va kuzatuvlardan orqali talabalar va pedagoglarning fikrlarini o‘rganish uchun.

Eksperimental metod – muzey asosidagi amaliy mashg‘ulotlarning turizmga tayyorgarlik darajasiga ta’sirini aniqlash uchun.

Analitik va kontent-tahlil metodlari – mavjud ilmiy manbalarni chuqur o‘rganib, asosiy g‘oyalarni tizimlashtirish uchun.

Tadqiqot ob’ekti sifatida oliv ta’lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar tanlandi. Tadqiqot predmeti esa – muzey pedagogikasi vositasida talabalarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlaridir.

NATIJALAR

Muzey pedagogikasining turizm ta’limidagi o‘rni aniqlandi. Muzeylar talabalarda madaniy merosga hurmat, estetik tafakkur, analitik fikrlash, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish orqali turizm faoliyatiga tayyorlashda kuchli ta’sirga ega ekani isbotlandi.

Muzey pedagogikasiga asoslangan ta’lim shakllari aniqlab berildi. Jumladan:

- interaktiv ekskursiyalar;
- loyiha asosida ta’lim;
- muzeydagi amaliy mashg‘ulotlar;
- virtual muzey darslari;
- tematik ko‘rgazmalar asosidagi integratsiyalashgan mashg‘ulotlar.

Tadqiqot jarayonida talabalar ishtirokida eksperimental sinov darslari o‘tkazildi.

Natijada:

- talabalar bilim darajasida 20–25% ga o‘sish;
- kasbiy qiziqishning kuchaygani (so‘rov nomasida);
- guruhiy va mustaqil ishlash ko‘nikmalarining rivojlangani kuzatildi.

Muzey bilan hamkorlikda tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar talabalarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirganini ko‘rsatdi:

- turizm obyektlarini targ‘ib etish ko‘nikmasi;
- gidlik (ekskursovodlik) asoslari;
- milliy qadriyatlar va tarixiy merosni tushuntira olish;
- jamoada ishlash, axborot to‘plash va taqdim etish ko‘nikmalari.


Pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatildi:

- muzey muhitidan faol ta’lim vositasi sifatida foydalanish;
- zamonaviy texnologiyalarga asoslangan interaktiv metodlardan foydalanish;
- muzey-pedagog va OTM o‘qituvchilari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- talabalarni amaliy faoliyatga keng jalb qilish.

MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, muzey pedagogikasi zamonaviy ta’limda, xususan, talabalarni turizm faoliyatiga tayyorlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Muzey muhitining ta’limiy imkoniyatlari orqali talabalar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishadi. Bu holat, ayniqsa, turizm sohasida ishlashni istagan talabalar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, an'anaviy dars shakllari bilan solishtirganda, muzeyga asoslangan interaktiv mashg'ulotlar talabalar faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrashi, muloqot qobiliyati va madaniy ongini rivojlantiradi. Bu esa ularni bo'lajak gid, ekskursovod, madaniy meros targ'ibotchisi sifatida tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.



Shuningdek, muzey faoliyatining turizm ta'limiga integratsiyalashuvi orqali ta'lim mazmuni yanada boyiydi, fanlararo integratsiya imkoniyatlari kengayadi, talabalar o'rganayotgan mavzular real hayot bilan bog'lanadi. Bu esa ularda kasbga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqish uyg'otadi.

Tadqiqotda aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar – muzeylar bilan hamkorlik, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, loyiha asosida o'qitish, talabalarni amaliyatga yo'naltirish – barchasi talabalarni turizm faoliyatiga samarali tayyorlash imkoniyatini kengaytiradi. Ammo bu jarayon samaradorligini ta'minlash uchun pedagoglardan yuqori metodik tayyorgarlik, muzeylar tomonidan esa ta'limga ochiqlik va hamkorlikka tayyorlik talab etiladi.

Shu sababli, muzey pedagogikasini ta'lim jarayoniga to'liq integratsiyalash uchun tizimli yondashuv, davlat va ta'lim muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlash, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va o'qituvchilarni qayta tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muzey pedagogikasi talabalarda kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishda samarali vosita bo'lib, ayniqsa turizm sohasi

uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Muzey muhiti talabalarning madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, estetik didini shakllantiradi, ularda kasbiy identifikatsiya va amaliy faoliyatga tayyorlikni ta’minlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar — muzeylar bilan hamkorlikda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish, interaktiv va loyiha asosida ta’lim metodlarini qo‘llash, talabalarning mustaqil va guruhiy faoliyatini rag‘batlantirish — talabalarning turizm faoliyatiga tayyorligini oshirishda ijobiy natijalar berdi.

Muzey pedagogikasi turizm yo‘nalishidagi ta’limni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishda muhim metodik resurs hisoblanadi. Talabalarni turizm faoliyatiga tayyorlashda muzeyga asoslangan ta’lim shakllari yuqori samaradorlikka ega. Muzeylar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi tizimli hamkorlik talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish muzey pedagogikasining imkoniyatlarini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Вербицкий А. А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения. – Москва: ИЦ «Академия», 2004. – 143 с.
2. Хуппер-Гринхилл Э. Музеи и образование: цели, принципы, стандарты. – Москва: Логос, 2007. – 264 с.
3. Hein, G. E. Learning in the Museum. – London: Routledge, 1998. – 202 р.
4. Жўраев Н. Маданий мерос ва унинг таълим-тарбиядаги аҳамияти. – Тошкент: Фан, 2015. – 176 б.
5. Қодирова Г. Музей педагогикаси ва унинг таълим жараёнидаги ўрни // Педагогика журнали. – 2020. – №4. – Б. 45–49.
6. Аллаева Д. Туризм таълимида интерфаол методлардан фойдаланиш самарадорлиги // Жамият ва инновациялар. – 2022. – Т. 3, №2. – Б. 212–218.
7. Dewey, J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 91 р.
8. Azizxo‘jayev A. A. Pedagogika: umumiy pedagogik ta’limot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 368 б.
9. Kadirova D., Kadirova G. Muzey pedagogikasining metodologik asoslari. – Farg‘ona: FDPU Nashriyoti, 2021. – 122 б.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ти ПФ–60-сонли Фармони.